

**MA’MURIY JAVOBGARLIK VA JAZO TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH:
XALQARO STANDARTLAR HAMDA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI**

Aliyarov Sherzod Muratovich
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

Ma’muriy javobgarlikka tortish muddatlari masalasida O‘zbekiston qonunchiligida asosan unifikatsiyalashgan yondashuv qo‘llanilgan. MJtKning 36-moddasiga muvofiq, ma’muriy jazo huquqbuzarlik sodir etilgan kundan (davom etayotgan huquqbuzarliklarda esa aniqlangan kundan) boshlab bir yildan kechiktirmay qo‘llanilishi mumkin. Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali aniqlangan yo‘l harakati qoidalarini buzish holatlarida bu muddat bir oy etib belgilangan. Xorijiy davlatlar tajribasida esa, javobgarlik muddatlari huquqbuzarlik subyekti va sohasiga qarab tabaqalashtiriladi. Xususan, **Belarus** Kodeksining 7.6-moddasida jismoniy shaxslar uchun ikki oylik muddat ko‘rsatilgan. Tadbirkorlar, yuridik shaxslar va mansabdor shaxslarga nisbatan esa qilmish sodir etilgan kundan boshlab uch yil, aniqlangan kundan boshlab olti oy muddat o‘rnatilgan. **Qozog‘istonda** (62-modda) umumiy ikki oylik muddat bilan birgalikda soliq, ekologiya, korrupsiya va monopoliyaga qarshi kurashish sohalarida bir, uch va besh yillik maxsus muddatlar joriy etilgan. **Qirg‘izistonda** (48-modda) bu ko‘rsatkich jismoniy shaxslar uchun olti oyni, mansabdor va yuridik shaxslar uchun bir yilni tashkil qiladi. **Gruziya** qonunchiligi (38-modda) umumiy uch oylik, sud vakolatiga doir ishlar bo‘yicha esa to‘rt va olti oylik muddatlarni mustahkamlaydi. **Latviya** amaliyotida ma’muriy ish yuritishni boshlash davliligi bir yil (ayrim hollarda ikki yil), ijro muddati esa besh yil etib belgilangan.

Yagona bir yillik javobgarlik muddatining mavjudligi huquqni qo‘llash amaliyotida muayyan nomutanosibliklarni keltirib chiqaradi. Fabulasi oddiy va tez aniqlanadigan huquqbuzarliklar uchun bu muddat asossiz ravishda uzun hisoblanadi. Natijada shaxs uzoq vaqt davomida huquqiy noaniqlik holatida qoladi. Bu holat **Yevropa Kengashi Vazirlar Qo‘mitasining** ma’muriy sanksiyalar to‘g‘risidagi R (91) 1-son tavsiyasida (4-prinsip) mustahkamlangan “*oqilona muddat*” talabiga muvofiq kelmaydi¹⁸.

Aksincha, murakkab iqtisodiy va ekologik huquqbuzarliklar toifasida mazkur bir yillik muddat yetarli emas. Zarar miqdori va sababiy bog‘lanishni ekspertiza orqali aniqlash talab etiladigan ishlarda bir yil davomida yakuniy qaror qabul qilish imkoni bo‘lmaydi. Oqibatda aybdor shaxslar javobgarlik muddati o‘tganligi munosabati bilan javobgarlikdan chetda qolishi mumkin. V.N. Sindrya Rossiya Federatsiyasi amaliyoti tahlilida jarimalarning ijro etilish darajasi pastligini dolzarb muammo sifatida qayd etadi¹⁹.

¹⁸ Recommendation No. R (91) 1 of the Committee of Ministers to member states on administrative sanctions (adopted on 13 February 1991) // Elektron manba: https://search.coe.int/cm/Pages/result_details.aspx?ObjectId=09000016804fc94c (murojaat vaqti: 23.07.2026).

¹⁹ Цындрыя В.Н. Характеристика основных направлений совершенствования реализации государственной политики Российской Федерации в области назначения и исполнения

Mazkur ilmiy yondashuvni e’tirof etgan holda, milliy huquq tizimimiz uchun quyidagicha xulosa qilish mumkin: javobgarlik muddatlarini umumiy tarzda uzaytirish emas, balki ijro mexanizmlarini takomillashtirish va muddatlarni huquqbuzarlik toifasiga moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Uzun javobgarlik muddati ta’sirchan ijro tizimisiz qo’llanilsa, faqat hujjatlarda qoladigan va amalda bajarilmaydigan jazolar sonining sun’iy ravishda oshishiga olib keladi.

Shaxsning ma’muriy jazoga tortilmagan deb hisoblanish muddatini belgilash masalasida **Latviya** tajribasi ilmiy ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasining MJtK (37-modda) jazoni o‘tash muddati tugagan kundan boshlab bir yillik muddatni belgilaydi. **Qozog‘iston** qonunchiligi (61-modda) ham bir yillik umumiy qoidaga asoslanadi. Biroq yirik tadbirkorlik subyektlari tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida sodir etilgan qilmishlar uchun bu muddat uch yil etib belgilangan.

Latviya Kodeksi 24-moddasida esa, milliy amaliyotimizdagi mavjud huquqiy bo’shliqni bartaraf etuvchi muhim norma mustahkamlangan. Unga ko‘ra, agar jazo umuman ijro etilmagan bo‘lsa, ijro javobgarlik muddati tugagandan so‘ng ham shaxs yana bir yil davomida jazoga tortilgan deb hisoblanadi. O‘zbekiston qonunchiligida bunday kafolatning mavjud emasligi muayyan huquqiy mantiqsizlikni yuzaga keltiradi. Xususan, ma’muriy jazoni ijro etishdan bo‘yin tovlagan shaxs jazoni o‘z vaqtida o‘tagan fuqaroga nisbatan imtiyozli vaziyatda qolishi mumkin. Sababi, unda “*jazoni o‘tash muddati tugagan kun*” yuridik fakt sifatida umuman paydo bo‘lmaydi.

Bugungi kunda voyaga yetmaganlarga nisbatan ma’muriy jazo tayinlash amaliyotida ham muayyan huquqiy bo’shliqlar kuzatmoqda. Amaldagi MJtKda huquqbuzarning voyaga yetmaganligi faqat javobgarlikni yengillashtiruvchi holat sifatida qayd etilgan. Biroq bu toifadagi shaxslarga jazo tayinlashning maxsus tartibi ko‘zda tutilmagan.

Qirg‘iziston Kodeksining 43-moddasi 16 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslarga jarima tayinlashning alohida mexanizmini mustahkamlagan. Unga ko‘ra, voyaga yetmaganlarga qo‘llaniladigan jarima sanksiya doirasidagi miqdorning 50 foizidan va BHMning 50 baravaridan oshmasligi shart. Agar shaxs mustaqil daromadga ega bo‘lmasa, moliyaviy undiruv uning ota-onasi yoki qonuniy vakillari zimmasiga yuklatiladi. Ushbu kodeksning 44-moddasi esa, voyaga yetmaganlar uchun maxsus tarbiyaviy ta’sir choralarini (*qonun talablarini tushuntirish, zararni qoplash majburiyati, bo’sh vaqtni cheklash*) joriy etgan. **Latviya** qonunchiligi (14-modda) voyaga yetmaganlarga nisbatan katta yoshli huquqbuzarlar uchun ko‘zda tutilgan jarimaning faqat yarmini qo‘llashni belgilaydi. **Qozog‘istonda** esa, (65–70-moddalar) tarbiyaviy xususiyatga ega bo‘lgan ta’sir choralari va ularni ijro etish tartibi batafsil ishlab chiqilgan. Ushbu normalar murakkab institutsional o‘zgarishlarni talab qilmaganligi sababli, ularni milliy qonunchiligimizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri implementatsiya qilish maqsadga muvofiq.

Qirg‘iziston, Latviya va Qozog‘iston tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi MJtKni quyidagi modda bilan to‘ldirish taklif etiladi:

“33¹-modda. Voyaga yetmaganlarga ma’muriy jazo tayinlash

5-Avgust, 2026-yil

O‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxsga tayinlanadigan ma‘muriy jarimaning miqdori sanksiyada nazarda tutilgan miqdorning ellik foizidan hamda bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan oshmasligi kerak.

Voyaga yetmagan shaxs mustaqil daromadga yoki mol-mulkka ega bo‘lmagan taqdirda jarimani to‘lash majburiyati uning ota-onasi yoxud qonuniy vakillari zimmasiga yuklatiladi.

Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan ma‘muriy jazo o‘rniga ushbu Kodeksning 22¹-moddasida nazarda tutilgan ma‘muriy-huquqiy ta‘sir choralari qo‘llanilishi mumkin”.

Ma‘muriy qamoq jazosini qo‘llash va ijro etish masalasida B.B. Adilov milliy va xorijiy tajribaning qiyosiy tahlilini amalga oshirgan. Tadqiqotchi o‘z ishlarida **Moldova** Respublikasida ushbu jazo ijrosi mustaqil hujjat – Ijro kodeksi asosida tartibga solinishini ta‘kidlaydi. **Rossiya** Federatsiyasida sohaga oid maxsus qonun ma‘muriy qamoqni o‘tashni muayyan vaziyatlarda kechiktirish huquqini kafolatlaydi.

Belarus Respublikasi amaliyotida esa qamoqqa olinganlarni saqlash muassasalari uchun maxsus ichki tartib qoidalari ishlab chiqilgan. Mazkur tahlillar asosida B.B. Adilov ma‘muriy qamoq jismoniy shaxslarga qo‘llaniladigan ta‘sir choralari iyerarxiyasida eng og‘ir jazo sifatida yakuniy o‘rinda turishi lozim, degan ilmiy xulosani ilgari suradi²⁰.

Shuningdek, u **Ukraina** va **Qozog‘iston** tajribasi asosida jazolarni qo‘shish hamda uzil-kesil jazo tayinlash qoidalarining ahamiyatini ochib bergan²¹. Jazolar iyerarxiyasini maqbullashtirish bo‘yicha bildirilgan ushbu taklifni ilmiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash mumkin. Biroq sohadagi muammolarning asosi boshqa huquqiy bo‘shliqqa borib taqaladi. O‘zbekiston qonunchiligida ma‘muriy qamoq jazosini ijro etishni tartibga soluvchi mustaqil qonun hujjati mavjud emas. MJtK faqat jazoning o‘zini belgilash bilan cheklanadi. Ta‘sir choralari iyerarxiyasidagi o‘rinni o‘zgartirish orqali ushbu muammoni bartaraf etib bo‘lmaydi. Shu sababli asosiy yechim — ma‘muriy qamoq jazosini ijro etish tartibini mustaqil qonun darajasida mustahkamlashdir.

Majburiy mehnatga jalb etish bilan bog‘liq jazo chorasiga doir tadqiqotlarda turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, S.A. Storojev ayrim xorijiy davlatlarda majburiy (jamoat) ishlariga muqobil choralarni tayinlash va ijro etish amaliyotini o‘rgangan²². A. Koryak jamoat ishlari ko‘pgina davlatlarning jinoyat qonunchiligida keng qo‘llanilishini e‘tirof etadi. Uning ilmiy xulosalariga ko‘ra, majburiy ishlar unchalik ommalashmagan huquqiy ta‘sir chorasi hisoblanadi²³. O‘z navbatida, S.A. Kutukov va S.N. Smirnov MDH davlatlari

²⁰ Адиллов Б.Б. Айрим МДХ давлатларининг маъмурий қамокни қўллаш ва ижросини ташкил этиш борасидаги тажрибаси таҳлили // Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси Ахборотномаси. – 2023. – № 3 (55). – Б. 96–100.

²¹ Адиллов Б.Б. Украина ва Қозоғистон Республикаларида маъмурий қамокни қўллаш ва ижросини ташкил этиш борасидаги ижобий тажрибалар таҳлили // “Замонавий дунёда ижтимоий фанлар: назарий ва амалий изланишлар” республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – 2023. – № 11 (38). – Б. 21–23.

²² Сторожев С.А. Законодательная регламентация назначения и применения аналогичных обязательным работ мер в некоторых зарубежных странах // Уголовно-исполнительное право. – 2019. – Т. 14 (1–4). – № 4. – С. 374–378.

²³ Коряк А. Зарубежный опыт правового регулирования наказаний в виде обязательных, исправительных и принудительных работ // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. – 2020. – № 2-2 (41). – С. 120–124.

qonunchiligida majburiy ishlar hamda ozodlikni cheklash jazolarini ijro etish tartibini qiyosiy tahlil qilgan²⁴.

Mazkur tadqiqotlarning asosiy kamchiligi shundaki, ularda jinoiy va ma'muriy majburiy mehnatga jalb etish jazolari o'rtasidagi tafovut to'laqonli ochib berilmagan. O'zbekiston Respublikasi MJtKning 28¹-moddasida haq to'lanadigan jamoat ishlariga majburiy jalb etish chorasi mustahkamlangan. Ushbu chora xorijiy tajribadagi haq to'lanmaydigan jamoat ishlaridan mohiyatan farq qiladi. Shu sababli, tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan xorijiy tajribani milliy qonunchilikka to'g'ridan-to'g'ri implementatsiya qilish maqsadga muvofiq emas. Bunda faqatgina ijro mexanizmining o'ziga xos xususiyatlari hamda jazoning iqtisodiy tabiatini inobatga olish talab etiladi.

Chet el fuqarolarini ma'muriy tartibda chiqarib yuborish (deportatsiya) instituti doirasidagi ilmiy izlanishlarda turli xil yondashuvlarni kuzatish mumkin. Masalan, V.S. Mitin MDH makonidagi amaliyotni o'rganish asosida **Rossiya** qonunchiligini takomillashtirish takliflarini ilgari surgan²⁵. I.A. Chichik va A.A. Bobrishev esa, **Yevropa Ittifoqi** huquq tizimida “*chiqarib yuborish*” (expulsion) atamasining o'rniga “*olib chiqib ketish*” (removal) tushunchasini qo'llash maqsadga muvofiqligini asoslagan²⁶. Shuningdek, I.V. Petrov migratsiya sohasidagi huquqbuzarliklar uchun jismoniy shaxslarning yuridik javobgarligi masalalarini tahlil qilgan²⁷.

Bu borada **Rossiya** Kodeksiga 2026-yilda kiritilgan yangi normalar huquqni qo'llash amaliyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Mazkur kodeksning 4.1-moddasi 3.6 va 3.8-qismlarida chiqarib yuborish jazosini muqobil choralarga almashtirish asoslari mustahkamlangan. Unga ko'ra, vakolatli organ yoki mansabdor shaxs chet el fuqarosining mamlakatda yashash muddati, oilaviy ahvoli va soliq majburiyatlarini bajarish holatini inobatga oladi. Bundan tashqari, shaxsning daromadi, turar joyi, mashg'ulot turi va qonunga itoatkor xulq-atvori baholanadi. Agar chiqarib yuborish chorasi shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini haddan tashqari cheklasa va jazo maqsadlariga nomutanosib deb topilsa, uning o'rniga ma'muriy jarima yoki majburiy ishlar tayinlanishi mumkin. **O'zbekiston** Respublikasi MJtKning 23-moddasi birinchi qismi 8-bandida belgilangan chiqarib yuborish jazosi doirasida bunday proporsionallik mezonini nazarda tutilmagan. Shu sababli, ushbu xorijiy tajribani milliy qonunchilikka implementatsiya qilish ma'muriy yurisdiksiyani takomillashtirishning eng maqbul va zarur yechimlaridan biri hisoblanadi.

Ma'muriy jazolar tizimini xalqaro huquqiy standartlar nuqtai nazaridan tahlil qilish ham alohida ahamiyat kasb etadi. **Yevropa Kengashi Vazirlar Qo'mitasining** 1991-yil 13-fevraldagi R (91) 1-son tavsiyasida ma'muriy sanksiyalarni qo'llashning sakkizta asosiy

²⁴ Кутуков С.А., Смирнов С.Н. Сравнительный анализ правового регулирования порядка и условий исполнения наказания в виде принудительных работ (ограничения свободы) по законодательству стран СНГ // Уголовно-исполнительное право. – 2014. – № 2. – С. 82–86.

²⁵ Митин В.С. Некоторые вопросы правового регулирования реализации административного выдворения иностранных граждан и лиц без гражданства (опыт государств — участников СНГ) // Закон и право. – 2025. – № 3. – С. 92–98.

²⁶ Чичик И.А., Бобрышев А.А. Зарубежный опыт применения и совершенствования института административного выдворения // Право и государство: теория и практика. – 2024. – № 11 (239). – С. 311–314.

²⁷ Петров И.В. Административная ответственность физических лиц за миграционные правонарушения (правовой анализ) // Военное право. – 2021. – № 1 (65). – С. 89–95.

prinsipi mustahkamlangan. *Birinchidan*, sanksiyalar va ularni qo‘llash asoslari qonun darajasida belgilanishi shart. *Ikkinchidan*, javobgarlikni og‘irlashtiruvchi normalar orqaga qaytish kuchiga ega emas, yengillashtiruvchi normalar esa, shaxs foydasiga hal etiladi. *Uchinchidan*, bir xil ijtimoiy munosabatlarni muhofaza qiluvchi normalar doirasida ikki marta jazolashga yo‘l qo‘yilmaydi (*non bis in idem*). *To‘rtinchidan*, turli manfaatlarni himoya qiluvchi ikki vakolatli organ ish yuritganda, ularning har biri avval qo‘llanilgan sanksiyani inobatga olishi lozim. *Beshinchidan*, ma‘muriy ish yuritish oqilona muddatlarda amalga oshirilishi va muqarrar ravishda yakuniy qaror qabul qilish bilan tugallanishi talab etiladi. *Oltinchidan*, shaxsni ayblov haqida xabardor qilish, himoyaga tayyorlanish uchun yetarli vaqt berish hamda dalillar bilan tanishtirish kafolatlanadi. *Yettinchidan*, isbotlash majburiyati ma‘muriy organ zimmasiga yuklatiladi. Nihoyat, *sakkizinchi* prinsipga muvofiq, sanksiya tayinlash to‘g‘risidagi qarorlar mustaqil va xolis sud tomonidan qonuniylik nuqtai nazaridan nazorat qilinishi kerak²⁸.

O‘z navbatida, **Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudining** amaliyotida ham bu borada muhim pretsedentlar shakllangan. Xususan, “*Engel va boshqalar Niderlandiyaga qarshi*” ishida huquqbuzarliklarni milliy qonunchilikka ko‘ra tasniflash, ularning huquqiy tabiati va tayinlanishi mumkin bo‘lgan jazoning og‘irlik darajasi mezonlari ishlab chiqilgan²⁹. “*Yussila Finlyandiyaga qarshi*” ishi bo‘yicha qarorda esa, ma‘muriy sanksiyalar jinoiy ayblov doirasidan farq qilishi e‘tirof etilgan. Unga ko‘ra, ma‘muriy-protsessual kafolatlar har doim ham jinoyat protsessidagi kabi qat‘iy qo‘llanilmasligi asoslab berilgan³⁰.

Milliy qonunchilikning mazkur xalqaro standartlarga muvofiqligini tahlil qilish jarayonida ayrim huquqiy bo‘shliqlar aniqlanganligini qayd etish lozim. **Birinchi muammo** R (91) 1-son tavsiyasining uchinchi prinsipi bilan bog‘liq. Unda turli manfaatlarni himoya qiluvchi ikki vakolatli organ harakat qilganda, ilgari tayinlangan sanksiyani hisobga olish majburiyati nazarda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 34-moddasi uchinchi qismida ishlar turli organlar tomonidan ko‘rilayotgan holatlarda faqatgina og‘irroq sanksiya doirasida jazo tayinlash qoidasi o‘rnatilgan. Biroq, ilgari qo‘llanilgan jazoni inobatga olishning protsessual mexanizmi mustahkamlanmagan. **Ikkinchi kamchilik** sakkizinchi prinsipda qayd etilgan sud nazoratining minimal talablariga taalluqlidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 7-maydagi F-30-son farmoyishida ma‘muriy ishlarni ko‘rib chiqishda sud nazoratini kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur yondashuv mavjud huquqiy bo‘shliqni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shunga qaramay, sud nazorati institutini ma‘muriy qarorlar qabul qilish vakolatini faqat sud tizimida to‘plash (monopoliya) holatidan farqlash lozim. Sud nazorati vakolatli organ qarorining

²⁸ Recommendation No. R (91) 1 of the Committee of Ministers to member states on administrative sanctions (adopted on 13 February 1991) // Elektron manba: https://search.coe.int/cm/Pages/result_details.aspx?ObjectId=09000016804fc94c (murojaat vaqti: 23.07.2026).

²⁹ ECtHR (Plenary). Engel and Others v. the Netherlands, applications nos. 5100/71, 5101/71, 5102/71, 5354/72, 5370/72, judgment of 8 June 1976 // Elektron manba: <https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-57479> (murojaat vaqti: 23.07.2026).

³⁰ ECtHR (Grand Chamber). Jussila v. Finland, application no. 73053/01, judgment of 23 November 2006 // Elektron manba: <https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-78135> (murojaat vaqti: 23.07.2026).

5-Avgust, 2026-yil

qonuniyligini tekshirishni anglatadi. Sud monopoliyasi esa, bevosita qaror qabul qilish demakdir.

Umuman olganda olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonning amaldagi ma‘muriy-delikt tizimi haddan tashqari formallashtirilgan xususiyatga ega. Xususan, ma‘muriy jazo tayinlashda mutanosiblik prinsipi to‘laqonli ta‘minlanmagan. Shuningdek, javobgarlikni individuallashtirish hamda huquqbuzarning shaxsi va moliyaviy ahvolini obyektiv baholash mexanizmlari yetarlicha takomillashmagan.

Ma‘muriy yurisdiksiya sohasidagi mavjud bo‘shliqlarni bartaraf etish va jazoni yengillashtirish borasidagi sud monopoliyasini muvozanatlash maqsadida milliy qonunchilikka qator institutsional mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. *Birinchidan*, ma‘muriy jarimalarning preventiv ta‘sirini oshirish uchun ularga konfiskatsion xususiyat berish lozim. *Ikkinchidan*, bir nechta huquqbuzarlik uchun jazolarni muayyan chegara (maksimal shift) doirasida qo‘shish modelini amaliyotga tatbiq etish talab qilinadi. *Uchinchidan*, jarima ballari va ma‘muriy ta‘sir choralariining muddatlari qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga mutanosib ravishda qat‘iy tabaqalashtirilishi zarur.

Mazkur institutsional islohotlar mustahkam protsessual asosga ega bo‘lishi shart. Shu sababli, ma‘muriy jazolarni ijro etishda xalqaro inson huquqlari standartlarini, xususan, Yevropa Kengashi Vazirlar Qo‘mitasining R (91) 1-son tavsiyasida belgilangan protsessual kafolatlarni milliy qonunchilikka bevosita implementatsiya qilish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Science
Publication